

**BOTU PUBLITSISTIKASIDA TIL VA IMLO MASALASI****Feruza Sultonova***Alfraganus universiteti Filologiya fakulteti, jurnalistika
yo'nalishi 3-bosqich talabasi***Normurod Avazov***Rahbar: Alfraganus universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc)*

Annotatsiya: Muallif tomonidan ushbu maqolada 20-yillardagi til va imlo masalasi yoritilgan. Unda ayni davrda yangi alifbo to'g'risida hukumat darajasida ko'tarilgan masalalar tahlil etiladi. Botu 'Til va imlo masalasi ustida bir necha so'z', 'Butun ittifoq yangi alifbo markaziy qo'mitasi ikkinchi pnenuming yakuni o'rnida' nomli maqolalari hamda 'Til va imlo konfrensiyasi yakunlari' maqolalari tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: til, imlo, alifbo, plenum, jumhuriyat, qo'mita

Kirish

Mustabid sovet davlati tarix sahnasiga chiqqan kunlardan boshlab to so'nggi nafasiga qadar qancha begunoh kishilarni aksil inqilobiy faoliyat, millatchilik, zararkunandachilikda ayblab ularni ommaviy ravishda qirg'in qatag'on etib keldi. O'zbek xalqining shunday siymalaridan biri shoir, publitsist 26 yoshida 'Aksilinqilobchi', 'Millatchi' sifatida qatag'on etilgan Botudir. Botu 20-yillarda O'zbekistonda arab alifbosidan lotin alifbosiga o'tish tarafdorlaridan biri edi. Chunki, ayni paytda turkiy xalqlar lotin alifbosida birgalikda yagona alifboning tarafdori edilar. Shuning uchun Botu tomonidan O'zbekistonda alifbo to'g'risida hukumat darajasida fikrlarni bildirish uchun markaziy qo'mitada chiqishlar qildi, til va imlo masalasida konfrensiyada qatnashdi, bu to'g'risida maqolalar yozdi.

Usullar

Ushbu maqolani yozishda Botuning 2016-yil Istiqlol qahramonlari seriyasida chop qilingan 'Tanlangan asarlar'i asosiy manba sifatida olindi. Ushbu maqolani yozishda taqqoslash, qiyoslash kabi usullardan foydalanildi.

Asosiy qism

Yigirmanchi yillarda xalqimiz o'rtasida nafaqat shoir, balki har tomonlama bilimli, iste'dodli va fidoiy jamoat arbobi, muharrir hamda publitsist Botu — Mahmud Xodiev O'zbek madaniyati tarixida o'chmas iz qoldirdi. Ayni paytda ko'tarilgan muammolarni hal qilishda o'zining tengdoshlari o'rtasida iste'dodli hisoblangan Botu har bir masalaga xalq va vatan manfaatlari uchun foyda bo'ladigan jihatdan yondoshdi. Ayniqsa, Botu Moskva davlat universitetida o'qiganida iqtisodiy bilimlarni egallab o'zining vataniga millatiga bo'lgan munosabatlari keskin o'zgardi. Shuningdek, o'z tiliga bo'lgan e'tibori kuchaydi. Botu 'Alanga' jurnalida ishlaganda, 'Qizil qalam'



uyushmasini tashkil etganda va jamoat arbobi sifatida maktab va maorif sohasida keskin islohotlar olib borish kerak degan xulosaga keldi. Lotin yozuviga o'tishning ilmiy-nazariy jihatlarini bilan qizg'in shug'ullandi. U shu paytlarda yigirma besh yoshlarda edi. Shuningdek, Botu boshchiligida 'O'zbekiston SSSR xalq maorifi kommissarligi to'g'risida nizom' ishlab chiqildi. Uning tomonidan o'qituvchilar uchun 'Madaniy inqilob' nomli maxsus gazeta nashr etila boshlagan. Bu yo'nalishda Botu tomonidan yozilgan 'Butun ittifoq yangi alifbo markaziy qo'mitasi ikkinchi pnenumining yakuni o'rnida' maqolasi ayni davrdagi lotin asosida bo'lgan yangi alifboga o'tishga qaratiladi. Botuning ta'kidlashicha mavjud bo'lgan arab alifbosini maktablardan, matbuotlardan 'haydab chiqarish davri' yetganligini aytadi. Shuningdek, muallif O'zbekiston jumhuriyatini yangi alifboga ko'chirishdagi masalalariga e'tibor qaratadi. Bu yo'nalishda Ozarbayjonning harakatlarini qadrlash kerak deydi. Muallif tomonidan O'zbekistonda yangi alifboga ko'chish masalasi 1921-yil yanvardan boshlangan bo'lsa-da, 1926-yilga kelganda ham hech qanday amaliy harakat bo'lmaganligi, bu sohada hech qanday amaliy ish olib borilmaganligi va birorta ham kitob chop etilmaganligi tanqid qilinadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki muallif 1926-yildan keyin bu masalaga e'tibor qaratilayotganligini aytib o'tadi. Botu tomonidan 1928-yil 'Til va imlo masalasi ustida bir necha so'z' nomli maqolasida ham asosiy e'tiborni imlo masalasiga qaratadi. Ushbu maqolada muallif alifboning kelajakdagi o'rni va uning bilan bog'liq bo'lgan til va imlo masalasidagi munozaralarga e'tibor qaratadi.

Xulosa

Xulosa shuki, Botu lotin alifbosini taomilga kiritilgani va uni alifbolarda joriylashtirib yangi O'zbek alifbosiga erishilgani bilan bu yo'ldagi qilinishi kerak bo'lgan ishlar yana yetarlicha ekanini ta'kidlaydi. Botu o'sha vaqtlarda o'rta qo'ygan til va imlo masalasi hozirgi kunda ham yechimini kutayotgan muammolar sirasiga kiradi. Shu nuqtai nazardan ushbu dolzarb masalaning yechimi o'laroq o'tgan asrlarda va yaqin o'tmishda qilingan tadqiqotlari bilan uzviy bog'lagan holda samarali ishlarni amalga oshirish chora-tadbirlari ko'rilmogda. Bu esa nafaqat mutaxassis olimlar balki butun xalqimiz oldidagi yuksak vazifaga aylanmog'i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Botu. Tanlangan asarlar.- Toshkent: Ma'naviyat, 2016.- B.148-149.
2. Botu. Tanlangan asarlar.- Toshkent: Ma'naviyat, 2016. -B.150-152
3. Боту. Тил ва имло масаласи устида бир неча сўз. — Тошкент: Маънавият, 2016. — B.140.